

Salohiddin Anvarjonov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi yo‘nalishi

(arab-ingliz) guruhi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Raximboyev Izzat

Annotatsiya: *Maqolada Xiva xonligining mashhur tarixchisi Ogahiyning faoliyati va ilmiy merosi haqida qisqacha ma'lumot berilgan. U yorqin namoyanda, Xorazm an'anaviy tarix fanining davomchisi edi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm, Xiva xonligi, an'anaviy, tarixiy, ilm-fan, tarjima, qo‘lyozma.*

Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy o‘zbek xalqining va atoqli tarixchisi, o‘z davrining mashhur shoiri, mohir tarjimon sifatida o‘z asarlari va she’rlari bilan nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo va jahon ilmiy merosida katta o‘rin tutgan serqirra va sermahsul olim, yetuk mutafakkir edi.

Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li – Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri bo‘lib, Navoiydan keyin eng “ko‘p va xo‘b” she’r yozgan shoirlardandir. Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva atrofidagi Qiyot qishlog‘ida (Hozirgi Ogahiy nomli jamoa xo‘jaligi) dunyoga kelgan. Otasi Erniyozbek vafot etgach, yosh qolgan Ogahiyni tog‘asi Munis o‘z tarbiyasiga oldi. Munis atrofiga to‘plangan ijodkorlar bo‘lg‘usi shoir Ogahiy ijodiga katta ta’sir qildi. Ogahiy dastlabki bilimni Munis Xorazmiydan oldi, keyichalik Xiva madrasalarida tahsil ko‘rdi. Oldin maktabda keyin Xiva madrasasida tahsil ko‘rgan va arab, fors, turk tillarini puxta egallagan.

Ayni paytda u amakisiga miroblik qilishda ham katta yordamchi bo‘lib, bu sohaning sir-asrorlarini ham o‘zlashtirib borgan. Shu bois Munis 1829-yilda vafot etgan. Xiva xoni Olloqulixon (1825—1842 y.) 20 yoshli Muhammad Rizoni saroydagi bosh mirob lavozimiga tayinlagan va shu davrdan e’tiboran Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan shug‘ullangan²³. Xizmat yuzasidan ko‘p qishloqlarda bo‘lib, avom xalq – dehqonlar, hunarmandlar hayoti, muammolari, orzu-istiklari bilan qindan tanishgan va bu uning ijodida ham o‘z aksini topgan.

²³ Abdullayev H. Ogahiy abadiyati. T: O‘zbekiston, 1999.

Uning ijodiy shakllanishida amakisi Munis Xorazmiy (Amir Avazbiy o‘g‘li Shermuhammad)ning roli katta edi. Munis tarixnavis olim, mohir tarjimon, shoir, xattot va ma’rifatparvar shaxs edi. U arab, fors, turkiy xalqlar adabiyoti bilimdoni, musiqa hamda tarixdan yaxshi xabardor, mohir xattot bo‘lib, kufiy, rayhoniy, xatti shikasta kabi xatlarni yaxshi bilgan.²⁴

Munis Xiva xoni Eltuzarxon topshirig‘i bilan Xorazm tarixiga oid «Firdavsul-iqbol» nomli qimmatli tarixiy asar yaratishga kirishgan. Munis o‘z asarini Sherg‘oziyxon davrigacha yozib etkazilganda Eltuzarxon vafot etib, uning o‘rniga taxtga kelgan Muhammad Rahimxon I ham Munisga asarni davom ettirishni buyuradi. Munis «Firdavsu-l-iqbol» nomli asarini davom ettirib, unda Xorazmning qadimiy tarixi, Xiva xonligining siyosiy tarixi, turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan bo‘lgan munosabatlari, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, Buxoro, Qo‘qon xonliklari, Rossiya bilan olib borilgan diplomatik va savdo-sotiq munosabatlari, xonlikdagi sug‘orish, soliq, qurilish ishlari, o‘sha davrda yashagan olimlar, shoirlar hayoti va ijodini bayon qilgan.

Asar 1813-yil voqealari bayoni bilan tugagan. Boisi 1819-yilda xon Munisga Mirxondning mashhur «Ravzat us-safo» nomli tarixiy asarini o‘zbek tiliga tarjima qilishni buyurgan. Shu munosabat bilan Munis «Firdavsu-l-iqbol» nomli asarini yozishdan to‘xtab, «Ravzat us-safo» asarining birinchi jildini o‘zbek tiliga tarjima qilgan, ikkinchisini davom ettirayotganida esa avval Muhammad Rahimxon I, 1829-yilda esa Munisning o‘zi vafot etadi.

Xiva xonligining keyingi hukmdori Olloqulixon taxtga o‘tirgach, 1839-1840-yillar oralig‘ida Munisning shogirdi Ogahiyga 1813-yili voqealari bayoni bilan to‘xtagan «Firdavsu-l-iqbol» asarini davom ettirishni buyurgan . Bu davrda 30 yoshga kirgan Muhammad Rizo Ogahiy ustozni Munis boshlab qo‘ygan, ammo tugallay olmagan «Firdavsu-l-iqbol» nomli asarni davom ettiradi .

Ogahiy Xorazm tarixnavislik an‘analarini davom ettirib, Xiva xonligining keyingi davrlari tarixiga bag‘ishlangan bir qator asarlar yaratdi. Uning Olloqulixonaga bag‘ishlangan “Riyoz ud-davla” (1844-y.), Rahimqulixon davriga bag‘ishlangan “Zubdat ut-tavorix” (1846-y.), Muhammad Aminxon davriga bag‘ishlangan “Jome‘-ul voqeoti Sultoniy” (1856-yil), Sayid Muhammadxon davriga bag‘ishlangan “Gulshani davlat” (1865 y), Muhammad Rahimxon Feruz davriga bag‘ishlangan “Shohidi iqbol” (“Iqbol shohidi”) asarlarida Xiva xonligining 1813-yildan to 1874-yilgacha bo‘lgan tarixi davriy izchillikda, boy tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan edi . U Xiva taxtiga ketma-ket kelib

²⁴ Abdullayev. V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1964 y.

ketgan sakkiz xon hukmronligi davrida yashab, harbiy yurishlar, tarixiy voqealar guvohi bo'ldi va ularni o'z asarlarida aks ettirdi.²⁵

Ogahiyning asarlarida mahalliy xalqlarning ijtimoiy tarixi va hayoti, kundalik mashg'uloti, masjid, madrasalarning qurilishi, siyosiy voqealar – xalq qo'zg'olonlari, urushlar tarixi, hamda tarixiy shaxslar - olimlar, shoir-yozuvchilar haqida nihoyatda qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Asarlar matni nazm va nasr uyg'unligida yozilganligi bilan xarakterlanadi. Har bir tarixiy voqeа badiiy tarzda bayon qilingan bo'lib, har bir voqeа tasviri va ruhiga mos ravishda she'riy parchalar, masnaviy, qit'a, bayt, ruboiy, fard tarzida qo'llanilgan.

Ogahiyning Xiva xonligining 1813-yilidan 1873-yilgacha bo'lgan voqealarni tarixiy izchillikda, boy manbalar asosida yoritib beruvchi tarixiy asarlari xonlikning iqtisodiy ahvoli, qishloq xo'jaligi, sug'orish tizimi, shaharlari, ilm fan va madaniyat, davlat boshqaruvi va hukmdorlari haqidagi faktlarga hamda geografiya, etnografiyaga oid ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Ogahiy Munisning bu sohadagi an'analarini ham yanada rivojlantirdi. Munis va Ogahiy hamkorlikda yozgan “Firdavs-ul-iqbol” asari va o'zining Xorazm tarixiga oid beshta asari nafaqat o'zbek xalqining tarixini, balki qardosh tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq, rus, eron, afg'on xalqlarining tarixi, madaniyati, san'ati, urf-odatlari, psixologiyasi, shu xalqlarning kelib chiqishi, tirikchiligining manbai, qabilalarning tarixini o'rganishda ham manba bo'lib xizmat qiladi. Shunisi xarakterliki, bu asarlar iste'dodli shoir, taraqqiyatparvar adiblar Munis, Ogahiylar tomonidan yozilganligi sababli ularda xalqlarning tarixi, hayoti, kundalik mashg'uloti, masjid, madrasalarning qurilishi, turli hil hodisalar bayoni, xalq qo'zg'olonlari, urushlar tarixi, buyuk kishilar, olimlar, shoir-yozuvchilar va shu kabi ma'lumotlar proza, poeziyada realistik asosda, to'g'ri, aniq ifodalab berilgan.

Ogahiy o'zining tarixiy asarlari bilan Xorazmning yarim asrdan ortiq davrini yoritib beruvchi qimmatli tarixiy xronikasini yaratdi va O'rta Osiyodagi tarixnavislik fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U Xiva taxtiga ketma-ket kelib-ketgan sakkiz xon hukmronligi davrida yashadi va faoliyat ko'rsatdi. U xonlarning harbiy yurishlarida qatnashdi, barcha voqeа va hodisalarni bevosita o'z ko'zi bilan ko'rib, keyinchalik tarixiy asarlarida haqqonniy aks ettirdi.

Muhammad Rizo Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari xon va shoir Feruzning siyosiy-ma'rifiy tarbiyasiga ta'sir qilgan. U tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, yirik tarixiy shaxslarga bag'ishlab qasidalar yozgan. Ogahiyning «Qasidai nasihat» asari Feruzga bag'ishlangan. U

²⁵ Adabiyot nazariyasi. Ikki jiddlik. Adabiy asar.- Toshkent, Fan, 1978 y.

o‘z nasihatlarida sultanatni boshqarishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatadi, mamlakat va xalqniadolat bilan idora etish yo‘llarini belgilab beradi. Xon Ogahiyning hikmatli baytlarini marmar toshlarga yozdirib, arzxonalarga qo‘ydirgan. Ogahiy yigirmadan ortiq asarni fors tilidan o‘zbekchaga o‘girdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev. V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1964 y.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy asar.- Toshkent, Fan, 1978 y.
3. Abdullayev H. Ogahiy abadiyati. T: O‘zbekiston, 1999.
4. Hojiahmedov A.Mumtoz badiyaat malohati. T: Sharq, 1999.